



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar-aprel

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 712,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 199,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 856,9 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 712,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,1%) tashkil etadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



2019-yil yanvar-aprel oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning yanvar-aprel oylarida oldingi yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (42,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (12,0 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (81,0 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	712,4	120,2
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	45,6	102,3
moliyaviy xizmatlar	159,0	199,4
transport xizmatlari	119,4	101,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>113,5</i>	<i>100,2</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	17,7	106,2
savdo xizmatlari	221,6	111,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	19,9	101,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	32,5	128,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	10,8	121,1
ijara xizmatlari	14,1	87,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	20,2	105,3
shaxsiy xizmatlar	18,2	102,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7,9	103,2
boshqa xizmatlar	25,5	115,0


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (199,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (128,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (121,1 %), boshqa xizmatlari (115,0 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 221,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 42,7 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 64,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 29,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egalladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 159,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 199,4 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (93,9 %) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,9 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,1 % ga to'g'ri keldi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %




2018-yil yanvar-aprel oylari bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri hisoblanadi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati esa 106,2 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalambor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019-yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 32,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-aprel oylari bilan taqqoslaganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 8,9 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-aprel oylarida 856,9 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 175,0 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 118,2 % qayd etildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel: (71) 230-86-31*